

Date: 13thJanuary-2025

**MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN
MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLANISHI VA ASOSIY TAMOYILLAR**
**ГОСУДАРСТВЕННАЯ ФИНАНСОВАЯ ПОДДЕРЖКА ИНВЕСТИЦИОННЫХ
ПРОЕКТОВ В НАШЕЙ СТРАНЕ И ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ**
**STATE FINANCIAL SUPPORT OF INVESTMENT PROJECTS IN OUR
COUNTRY AND BASIC PRINCIPLES**

Kayumova Odina Saidraxmonovna

Bank-moliya akademiyasi tингловчиши

MBA Finance – Fintech yo‘nalishi

Annotatsiya: bugungi globallashuv sharoitida davlatlar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va milliy farovonlikni oshirish uchun investitsiya loyihalarini qo’llab-quvvatlash mehanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mazkur ilmiy maqoladaham aynan investitsiya loyihalarini davlat tomonidan moliyaviy qo’llab-quvvatlash borasidagi fikr-mulohazalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: davlat investitsiyalari, rivojlanish, o’sish, moliyaviy yordam, loyiha.

Abstract: in the conditions of today's globalization, countries are paying special attention to improving mechanisms for supporting investment projects to ensure economic growth and increase national welfare. This scientific article also talks about opinions on the financial support of investment projects by the state.

Key words: public investment, development, growth, financial support, project.

Аннотация: в условиях современной глобализации страны уделяют особое внимание совершенствованию механизмов поддержки инвестиционных проектов для обеспечения экономического роста и повышения национального благосостояния. В данной научной статье также говорится о мнениях по поводу финансовой поддержки инвестиционных проектов со стороны государства.

Ключевые слова: государственные инвестиции, развитие, рост, финансовая поддержка, проект.

Hayotning o‘zi va o‘tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o‘zgartirishni ta’minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda.

Sh. M.Mirziyoyev

Chindan ham, investitsiyalar nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish va ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishga ham xizmat qiladi. Shu bois, davlat tomonidan investitsiya loyihalariga beriladigan moliyaviy yordam iqtisodiyotni rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ana shu maqsadda, mamlakatimizda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar ko‘rilmoxda. Keling, shu

Date: 13thJanuary-2025

o'rinda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari xususida to'xtalib o'tamiz. Davlat investitsiya loyihalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun turli xil mexanizmlar va vositalardan foydalanadi. Quyida ularning asosiy turlari keltiriladi:

1. Imtiyozli kreditlar - Davlat tijorat banklari orqali investorlarga past foiz stavkalari bilan kreditlar ajratadi. Bu mexanizm yangi biznes loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy yukni kamaytiradi va loyihalarning barqarorligini oshiradi.

2. Subsidiya va grantlar - Davlat ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni bevosita moliyalashtirish uchun subsidiya yoki grantlar taqdim etadi. Bu usul ko'pincha qishloq xo'jaligi, sog'lioni saqlash va ta'lim sohalarida qo'llaniladi.

3. Soliq imtiyozlari - Investorlarga soliq bo'yicha turli xil imtiyozlar taqdim etiladi. Bunga soliq stavkalarini kamaytirish yoki ayrim to'lovlardan vaqtincha ozod qilish kiradi.

4. Davlat kafolatlari - Investitsiya loyihalari bo'yicha jalb qilingan tashqi moliyalashtirish uchun davlat tomonidan kafolat berilishi investorlarning ishonchini oshiradi va loyihalarni moliyalashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Davlat tomonidan moliyaviy yordam berilishi qator iqtisodiy natijalarga olib keladi:

Sanoat rivoji – Investitsiyalar sanoatning turli tarmoqlarini rivojlantiradi va milliy mahsulot hajmini oshiradi.

Ishsizlik darajasini kamaytirish – Yangi investitsiya loyihalari ish o'rinalarini yaratadi va mehnat bozorida talabni oshiradi.

Innovatsion rivojlanish – Davlat yordamidan foydalangan holda amalga oshirilgan loyihalar yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

Xo'sh, mazkur sohada yurtimizda qanday ushlarni amalga oshirish mumkin? O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin: Dastlab, qonunchilik bazasini takomillashtirish, ya'ni investorlarga kafolatlar beruvchi qonunlarni yanada takomillashtirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish lozim. So'ngra esa, elektron platformalar yaratish, jumladan, investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish va moliyalashtirish jarayonlarini tezlashtirish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish talab etiladi. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy investorlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birga, mahalliy investorlarni ham qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim qismi bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar samaradorligini oshirish uchun moliyaviy yordamning aniq me'zonlari va monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda o'tkazilgan majlisdagi «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2017- y. 16.01
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy ma'lumotlari.